

Buxoroda sayyor qabul

2025 19 Dekabr

Buxoroda Uzbekistan Airways aviakompaniyasining shahar aholisi, agentlik hamjamiyati va OAV vakillari bilan ochiq muloqot shaklida uchrashuvi bo'lib o'tdi. Tadbir davomida ishtirokchilar yo'nalish tarmog'i, tarif siyosati, agentlik hamkorligi va mintaqa havo qatnovlarini rivojlantirish istiqbollarinining asosiy masalalarini muhokama qildilar.



Aviakompaniya vakillari Buxorodan amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan yo'nalishlar haqida batafsil ma'lumot berishdi. Muloqot chog'ida jadvalni optimallashtirish bo'yicha takliflar, jumladan, Silk Avia reyslarini qayta taqsimlash orqali kechki vaqtda Uzbekistan Airways reyslari sonini ko'paytirish masalasi muhokama qilindi.



Uchrashuvning alohida qismi Buxorodagi yangi xalqaro aeroport foydalanishga topshirilgandan so'ng aviaqatnovlarni rivojlantirish istiqbollariga bag'ishlandi. Ishtirokchilar 2026-yilgacha rivojlanish rejalarini hisobga olgan holda yangi yo'nalishlarni ochish imkoniyatlari va yo'nalishlarning rentabelligini muhokama qildilar.



Uchrashuvning ochiq shakli ishtirokchilarga o'zlarini qiziktirgan savollarni to'g'ridan-to'g'ri berish va Uzbekistan Airways vakillaridan bu savollarga javoblarni olish imkonini berdi, bu esa aviakompaniyaning shaffof muloqot va mintaqada aviatsiya sohasini birgalikda rivojlantirishga intilishini yana bir bor tasdiqladi.











